

## GURUH RAHBARLARINING O'QUVCHILARNI O'RGANISHGA YO'NALТИРИЛГАН ФАОЛИЯТЛАРИНИ РИВОЈЛАНТИРИШ

*Toshev Jonibek Raxmatillaevich*

*Osiyo xalqaro universiteti pedagogika, psixologiya yunalishi magistri*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bugungi kunda erkin va mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy-siyosiy hayotda ongli ravishda va faol ishtirok etishga qodir yosh avlodni shakllantirish. Guruh rahbari o'quvchi va o'qituvchi munosabatiga alohida e'tibor bilan qarashi va uni obdon o'rganishi lozim. «O'quvchi va o'qituvchi» tizimidagi o'zaro harakat o'quvchilarga samarali ta'lif berishning hal qiluvchi omillarini ustuvor yo'nalishilarini tushuntirib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Texnologiya, demokratik, audiovizual vositalar, avtomatlashtirish vositalar, ta'lif-tarbiya, ma'naviy-axloqiy, demonstratsion, etnik, iqtisodiy, estetik, gigienik, pedagogik texnologiya, metodologiya, kompetensiya, didaktik, integratsiya, konseptual.

### **РАЗВИТИЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЛИДЕРОВ ГРУПП, НАПРАВЛЕННОЙ НА ОБУЧЕНИЕ СТУДЕНТОВ**

Тошев Джонибек Раҳматиллаевич

*Степень магистра педагогики, психологии, Азиатский международный  
университет.*

**Аннотация:** В данной статье рассматривается формирование свободно и независимо мыслящего молодого поколения, способного к сознательному и активному участию в общественной и политической жизни сегодня. Руководитель группы должен обратить особое внимание на взаимоотношения ученика и преподавателя и тщательно их изучить. Взаимодействие в системе «ученик и преподаватель» объяснено как приоритетные направления решающих факторов эффективного обучения студентов.

**Ключевые слова:** Технологические, демократические, аудиовизуальные средства, средства автоматизации, образовательные, духовно-этические, демонстративные, этнические, экономические, эстетические, гигиенические, педагогические технологии, методология, компетентность, дидактические, интеграционные, концептуальные.

### **DEVELOPMENT OF ACTIVITIES OF GROUP LEADERS DIRECTED TO TRAINING STUDENTS**

*Toshev Jonibek Rakhamillaevich*

*Master's degree in pedagogy, psychology, Asian International University.*



**Abstract:** This article discusses the formation of a freely and independently thinking young generation capable of conscious and active participation in social and political life today. The group leader must pay special attention to the relationship between the student and the teacher and study them carefully. The interaction in the student-teacher system is explained as the priority areas of the decisive factors for effective student learning.

**Key words:** Technological, democratic, audiovisual means, automation means, educational, spiritual and ethical, demonstrative, ethnic, economic, aesthetic, hygienic, pedagogical technologies, methodology, competence, didactic, integration, conceptual.

Yosh avlodga tarbiya berishdek murakkab vazifani hal etishda maktab juda katta ahamiyat kasb etadi. Ayni shu joyda yoshlarimiz ijtimoiy jamiyat va ilmiy texnika taraqqiyoti talablariga javob bera oladigan mukammal ma'lumotlarni oladilar. Maktab yoshlarining dunyoqarashlariga poydevor hamda g'oyaviy e'tiqodlari uchun negiz yaratadi, ularning irodalarini shakllantiradi, xalqimiz baxtsaodati yo'lida sidqi dildan mehnat qilishga taayyorlaydi. Shuning uchun ham mamlakatimizda qabul qilingan “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun (2020 yil 23.09) ta’lim tizimining buguni va kelajagiga umid bilan qarashga undaydi. Hozirgi zamon maktabi tubdan yangilanmoqda.

O’quvchilarga tarbiya berish, ularga ta’lim berish bilan mustahkam va yaxlit birlikda amalga oshiriladi. Ammo, tarbiyaning o’z vazifasi, mazmuni, shakl hamda uslublari bor. O’quv tarbiyaviy jarayon uzviyligi maktab oldiga qo’yilgan ehg muhim pedagogic qoidalardan biri hisoblanadi, shunig uchun ham sinfdan va mактабдан tashqari tarbiyaviy ishlar bevosita o’quv jarayoni bilan bog’langandir. Darsdan tashqari mashg’ulotlar o’quvchilarda asosiy vazifalari bo’lmish ilm olishga ishtiyoq uyg’otish, qobiliyati va iste’dodlarini ro’yobga chiqarishga imkoniyat yaratishdan maktabni muvaffaqiyatli tugatish, kasb-korga intilish hissini tarbiyalashdan iboratdir. Yoshlearning kundalik ehtiyojlari, intilishlari, talab va qiziqishlarini faqat dars jarayoni bilan qondirib bo’lmaydi. Sinfdan va mактабдан tashqari mashg’ulotlar o’quvchilar faoliyatining barcha qirralarini qamrab olmog’I lozim. Har bir o’quvchi bilan yakkama-yakka ishslash, uni ijtimoiy-ruhiy jihatdan o’rganish sinf faoliyatiga yangicha mazmun olb kiradi. Yoshlearning g’oyaviy-siyosiy ongini shakllantirish, ularda atrof-muhitga, jamiyatga ongli munosabatda bo’lish, jonajon Vatanni cheksiz sadoqat bilan sevish, xalqimizning milliy qadriyatlarini e’zozlash hissini tarkib toptirishvatanzparvarlik tarbiyasining mag’zzi bo’lmog’I lozim.

Guruh rahbari o’quvchi va o’qituvchi munosabatiga alohida e’tibor bilan qarashi va uni obdon o’rganishi lozim. «O’quvchi va o’qituvchi» tizimidagi o’zaro harakat o’quvchilarga samarali ta’lim berishning hal qiluvchi omildir. Bunday o’zaro

harakatning shiddati va o'ziga xos xususiyati o'qituvchining pedagogik mahorati darajasiga uning ta'lim beruvchi tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi har bir o'quvchini puxta bilish faoliyatiga jalb etish mahoratiga bolik. Pedagogik jarayonining majburiy tusda bo'lishi o'quvchi bilan o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda tanglikni vujudga keltiradi. Agar guruhdha odatdagi ruxiy-pedagogik sharoitlar yaratilmas ekan, hech narsaga erishib bo'lmaydi. Insonparvarlikka zid uslub bolalarda o'qishga bo'lgan havasini sindiradi, ularni qo'rkoq, o'qituvchini yo'qtirmaydigan qilib qo'yadi, ularda maktab hayotidan norozilikh hissini keltirib chikaradi, ularni faol bo'lish quvonchidan mahrum qiladi. Guruh rahbari tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish jarayonida o'qish nafakat har kimning shaxsiy ishi, balki ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ish ekanligini o'quvchilarga tushuntirib boradi.

Guruh rahbari tarbiyaviy faoliyatining samaradorligini oshirish. Dolzarb maqsadga aylanish lozim hisoblanadi. Bu uchun biz oldimizga quydagи vazifalarni belgilab quyishlazim.

- Guruh rahbarining o'quvchilarni o'rganishga yo'naltirilgan faoliyatining maqsad va mohiyatini o'rganib chiqish;

- Guruh rahbarining vazifalari va shaxsiy sifatlarining ahamiyatini yoritish;

- Guruh jamoasini tashkil etish va tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlarini ahiqlash;

- Guruh jamoasi bilan ishlash va unga rahbarlik qilishning amaliyotdagi axvolini o'rganish;

Bu vazifalar ta'lim muassasalarida guruh rahbarining o'quvchilarni o'rganishga yo'naltirilgan tarbiyaviy tarbiyaviy ishlarning sifat va samaradorligini oshirish, amaliyotda keng joriy etishda bitiruv malakaviy ish materiallari boy nazariy amaliy manba bo'lib xizmat qiladi.

Guruh rahbarining faoliyati ko'p qirrali va sermazmundir. U o'zi rahbarlik qilayotgan guruh o'quvchilarini tarbiyalash bilan bir qatorda o'quv yili davomida nimalar qilish kerakligi, talabalar hayotining nima bilan band qilish va tanlangan ish turini amalga osh9iroishini bexato aniqlash kabi ancha murakkab muammoni uechadi. Bu borada guruh rahbariga turli xil manbalar yordam beradi. Guruh rahbarining ish faoliyatda «Talabalarni tarbiyalash ishining mazmuni» bo'lishi kerak.

Guruh rahbarining pedagogik faoliyati va mahorati o'quv faoliyatida ham, o'qishdan tashqari faoliyatda ham zarur bo'lgan umumiy pedagogik malakalar majmuidan tashkil topadi. Avvalo, pedagogik texnikaning tarkibiy qismi sifatida pedagogning nutq malakalarini, ya'ni savodli gapirish, o'z fikr va his tuyg'ularini so'zda aniq ifodalash malakalari muhimdir.

Pedagogik texnikaning boshqa tarkibiy qismi guruh rahbarining mimik va pantomimik ifodaliligidir. Aniq imo – ishora, ma'noli qarash, rag'batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum pedagogik ta'sir ko'rsatishda ko'p so'zli tushuntirish yoki e'tiroz bildirishga qaraganda ancha samarali muomala vositalari bo'ladi. Pedagogik o'zaro

ta'sir ko'rsatishda guruh rahbarining o'z hissiy holatini boshqarish, o'zida eng qulay hissiy jiddiylik darajasini va umidbaxshlik, xayrixohlik kayfiyatini saqlash, o'zining hissiy dam olishini tashkil etish mahorati muhim rol o'ynaydi. Bu mahorat pedagogning kasbiy jihatdan o'z – o'zini nazorat qilishni ta'minlaydi. Ko'p yillar davomida sog'lom asab sistemasini saqlab qolish, asabiy buzilishlardan, hissiy va aqliy zo'riqishdan o'zini tiyishga yordam beradi.

Guruh rahbarining pedagogik texnikasi – bu shunday bir malakalar yig'indisidirki, u guruh rahbariga tarbiyalanuvchilar ko'rib va eshitib turgan narsalar orqali ulaga o'z fikrlari va qalbini etkazish imkonini beradi. A.S.Makarenko shularni nazarda tutib, «Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq, jahldor bo'lishini bilishi lozim, u o'zini shunday tutishi kerakki, uning har biri harakati tarbiyalasin», deb yozgan edi. Pedagogik texnikani egallashning asosiy yo'llari pedagog rahbarligidagi mashg'ulotlar (pedagogik texnikani o'rghanish) va mustaqil ishlash (kasbiy jihatdan o'z – o'zini tarbiyalash) dir. Pedagogik texnika malakalrining individual – shaxsiy tusda ekanligini hisobga olib, pedagogik texnikani egallashda va uni takomillashtirishda kasbiy jihatdan o'z – o'zini tarbiyalash, ya'ni talabaning o'zida mohir pedagog shaxsiy fazilatlarini va kasbiy malakalarini shakllantirishga qaratilgan faoliyat etakchi rol o'ynaydi, deb aytish mumkin.

### ***Guruh rahbarining vazifalari va shaxsiy sifatlari.***

Hozirgi davrda ta'lim muassasasi va undagi o'quv, tarbiya jamoa oldiga juda kata ijtimoiy axamiyatga molik vazifalar quyilmoqda.

#### ***Guruh rahbarining vazifalari:***

- 1.Anatomik, fiziologik va psixologik xususiyatlarini o'rghanish.
- 2.Talabalarning kundalik davomati odob, xulqi va jamoat ishlariga qatnashishini tekshirib borish.
- 3.Talabalarning rejimga rioya qilishlari va uyga berilgan vazifalarni tayyorlab borishlarini kuzatish.
- 4.Guruhda ishlaydigan fan o'qituvchilari bilan majlis o'tkazish
- 5.Darsda talabalarning davomatini ta'minlash, guruhda va o'quv yurtida navbatchilikni tashkil etish , xonani jihozlash, xonadagi o'quv asboblarini saqlashga o'rtgatish, talabalarning qiyinchiliklarini nazorat qilib ular bilan suhbat o'tkazish.
- 6.Guruh majlichlarini tizimli va tartibli o'tkazish.
- 7.«Kamolot» tashkiloti bilan ish rejalariga muvofiq darsdan tashqvari ishlarini tashkil etish.
- 8.Talabarlarning darsdan ashqari o'kishlari va anjumanlarini o'tkazish
- 9.Guruh talabalari bilan sport, harbiy vatanparlik tarbiyasi borasida tadbiriy choralar ko'rish, talabalar sog'lig'ini muntazam nazorat qilish, jismoniy tarbiya o'qituvchilari, harbiy ta'lim o'qituvchilari bilan doimiy aloqada bo'lish.
- 10.Talabalarni rag'batlantirish va zarur vaqtarda ularga nisbatan chora ko'rish.

11.Talabalarning ota-onalari bilan tarbiya borasida doimiy aloqada bo'lish va ular bilan individual suhbatda bo'lish.

12.Talabalarning shaxsiy va guruhga oid hujjvtlarni tartibli olib borish.

Guruh rahbaridan madaniyat darajasining kengligi, pedagogik odob talablariga rioya kilish, har bir talaba shaxsini inson sifatida hurmat qilish bilan unga nisbatan talabchanlikni unutmaslik, tashkilotchilik malakalariga ega bo'lish, o'z malakasini tinimsiz oshirib borish bilan ishga ijodiy yondoshish talab qilinadi. Muhimi shundaki, guruh rahbarining o'z bolalarda tarbiyalamoqchi bo'lgan g'oyaviy-axloqiy goyaga mos bo'lishi kerak.

**Bir so'z bilan aytganda, bugungi o'quvchi tarbiya natijasida komil inson darajasiga, ya'ni jamiyatning barkamol a'zosiga aylanadi. Buning uchun uning ongi va tafakkuri rivojlanib, ijobiy fazilatlarni o'zida shakllantirib borishi lozim.**

Shunday qilib, tarbiyalash, o'z-o'zini tarbiyalash va qayta tarbiyalash jarayonlari o'zaro mustahkam bog'langan bo'lib, inson shaxsini tarkib toptirishning bir butun jarayonida doimo bir-biriga ta'sir o'tkazadi.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Ян Амос Коменский и проблемы современной школы : Всерос. науч.-практ. конф. (30–31 марта 1992 г., Самара) : тез. докл. – Самара : [б. и.], 1992. – 171 с. – [74.03 2647615 К 631].
2. Xo'jayev N.X., Madyarova S.A., Eshchonov E.U. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat: «Xalqaro moliya» mutaxassisligining magistrantlari uchun darslik / CTzbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Toshkent Moliya instituti. - Т.: «Iqtisod-moliya». 2009. -240 б
3. Рахманова, М. К. Талабаларда ижтимоий фаолликни ривожлантиришнинг назарий методологик асослари. *Халқ таълими*, (1), 24-29. (2019).
4. Turaev S.J. (2019) "[Methods of using the programming language in preparing students for research activities](#)" Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology: 2020. –P. 294-299.
5. Тураев С.Ж. [Solution of problems on subject physics with the help of borland](#). Инновации в технологиях и образовании. 2018 г.258-259 с
6. Одилов Ё.Ж. [Физика фанини ўқитишида замонавий педагогик технологиялардан фойдаланиш](#) Наманган давлат университети илмий ахбороти 2021/11, 22-24
7. Одилов Ё.Ж. [Informatsionno-kommunikatsionniye texnologii \(ikt\) v obrazovanii. Ikt kompetentnost v professionalnom razvitiu kadrov](#) // Scienceweb academic papers collection. ISSUE 9. ISSN 2181-1784. Scientific Journal Impact Factor. – Тошкент, 2019/1/1. 436-441.
8. Одилов Ё.Ж. [Methods of preparing students for professional activity on the basis of teaching physics](#) // O'zbekiston Milliy Universiteti Xabarlari. 2022,[1/11] ISSN 2181-7324